

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.T.Zokirov	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida	939
N.R.Umarova, O.T.Maxmudova	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi	944
M.A.Matmusayeva	
O'yin nomlarida lingvomadaniy xususiyatlarning ifodalanishi.....	949
D.M.Buzrukova	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida	953
N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov	
Tilshunoslikda modus tushunchasi	957
S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova	
Sosiolingvomadaniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi	961
D.M.Yuldasheva	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi	966
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydanish samaradorligi	971



УО‘К: 811.512.13322.008

**“MUHABBAT” KONSEPTI HISSIY OLAM MANZARASINING MUHIM ELEMENTI
SIFATIDA**

**“LOVE” CONCERT AS AN IMPORTANT ELEMENT OF THE LANDSCAPE OF THE
EMOTIONAL WORLD**

**КОНЦЕРТ «ЛЮБОВЬ» КАК ВАЖНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ЛАНДШАФТА
ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МИРА**

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Har qanday madaniyatning markaziy tushunchalaridan biri – bu muhabbat tushunchasidir. Muhabbat, ya’ni sevgi insonlar bilan bog’liq o’ziga xos hodisa-fenomendir. Uning o’ziga xosligi nafaqat “vaqtadan tashqarida” mavjudlik, balki globallikda hamdir, chunki muhabbat yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, universal va individual hiss tuyg’udir. Tadqiqotchilarning fikricha, hech bir konsept “muhabbat” hissiy konsepti singari ko’plab ma’no va keng madaniy xususiyatlarni qamrab ololmaydi. “Muhabbat” konsepti har qanday tilda o’z aksini topadigan asosiy universal tushunchadir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchilar ushbu hissiy konseptning turlicha talqinlarini bermoqdalar.

Abstract

One of the central concepts of any culture is the concept of love. Love, that is, love, is a unique event-phenomenon related to people. Its uniqueness lies not only in existence “outside of time”, but also in globality, because love is a universal and individual feeling, as noted above. According to the researchers, a single concert cannot cover as much meaning and broad cultural features as the emotional concert of “love”. The concert “Love” is the main universal concept that is reflected in any language. From this point of view, researchers give different interpretations of this emotional concert.

Аннотация

Одним из центральных понятий любой культуры является понятие любви. Любовь, то есть влюбленность, – уникальное событие-феномен, связанное с людьми. Ее уникальность заключается не только в существовании «вне времени», но и в глобальности, ведь любовь – чувство универсальное и индивидуальное, как было отмечено выше. По мнению исследователей, один концерт не может охватить столько смысла и широких культурных особенностей, как эмоциональный концерт «любви». Концерт «Любовь» — это главная универсальная концепция, которая находит отражение на любом языке. С этой точки зрения исследователи дают разные интерпретации этого эмоционального концерта.

Kalit so’zlar: lingvokulturologiya, kognitiv yondashuv, olamning hissiy-lisoniy manzarasi, konsept, “muhabbat” konsepti.

Key words: linguoculturology, cognitive approach, emotional-linguistic view of the world, concept, “love” concept.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивный подход, эмоционально-лингвистическая картина мира, концепт, концепт «любовь».

KIRISH

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik murakkab umumiyl tushunchalarni o’zida aks ettiruvchi zamonaviy yo’nalish bo’lib, bu yo’nalishlar til va madaniyatning uzviy aloqasini va o’zaro ta’sirini o’rganadi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigma mahsuli sifatida ta’riflanayotgan lingvokulturologik yo’nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar turli til va madaniyat vakillarining hamda turli etnomadaniyatga mansub lisoniy shaxslarning farqli olam manzarasiga, ruhiy, madaniy va mental jihatdan o’ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko’rsatib bermoqda.

Kognitiv tilshunoslik ham zamonaviy tilshunoslikning ayni paytdagi nisbatan yangi yo'nalishlaridan biridir. Kognitiv tilshunoslik fanlararo xususiyatga ega yo'nalish sifatida psixolingvistika, neyrofiziologiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskurs, sun'iy intellekt nazariyasi kabi ko'plab zamonaviy yo'nalishlarning o'zaro integratsiyasi natijasida rivojlanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har qanday madaniyatning markaziy tushunchalaridan biri – bu muhabbat tushunchasidir. Muhabbat, ya'ni sevgi insonlar bilan bog'liq o'ziga xos hodisa-fenomendir. Uning o'ziga xosligi nafaqat "vaqtadan tashqarida" mavjudlik, balki globallikda hamdir, chunki muhabbat yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, universal va individual his-tuyg'udir. Tadqiqotchilarning fikricha, hech bir konsept "muhabbat" hissiy konsepti singari ko'plab ma'no va keng madaniy xususiyatlarni qamrab ololmaydi. "Muhabbat" konsepti har qanday tilda o'z aksini topadigan asosiy universal tushunchadir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchilar ushbu hissiy konseptning turlicha talqinlarini bermoqdalar.

Ingliz tilining izohli lug'atlarida "*love*", ya'ni "muhabbat" konsepti semantikasiga berilgan ta'riflar tushunarsiz va noaniqligini L.V.Kulgavova "*love*" so'zining ma'nolarini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotida ko'rsatib o'tadi [1,16].

Shuningdek, so'nggi o'n yilliklarda "muhabbat" konsepti milliy mentalitet prizmasidan o'ziga xos lisoniy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan har bir etnomadaniyatning dominant sifatida tadqiq etildi va "muhabbat" konseptini metatil yordamida adekvat talqin qilish yo'llari qidirildi. Ko'plab tillar qiyosiy tahlilida "muhabbat" konseptining lingvokulturologik o'ziga xosligi o'rganilib, "muhabbat" konsepti "baxt" teleonomik tushunchasining etnosemantikasi bilan tavsiflanadi.

V.Smolenseva "muhabbat" hissiy konseptini qo'shiq diskursi misolda tadqiq etib, mazkur hissiy konseptning strukturasini o'rganish metodi sifatida tadqiqotchi o'rganilayotgan konseptning leksik-semantik o'zagi tarkibiy tahlilidan foydalanadi. "Muhabbat" hissiy konseptining konseptual maydoni, yadro-periferik elementlarining boshqa hissiy konseptlar (salbiy va ijobjiy) bilan bog'liqligini va kesishish nuqtasiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchi muhabbat hissining leksik ifodalari mavjudligini, ammo bu tuyg'u ko'pincha so'zlovchilar tomonidan yashirin ifodalishini ham kuzatish mumkinligini aytib o'tadi [2,132].

A.D.Irillova U.S.Moem asarlarida "muhabbat" hissiy konseptining verballahuvini o'rganar ekan, u o'z tadqiqotida asosiy e'tiborni kognitiv-pragmatik yondashuvga qaratdi. Uning ta'kidlashicha, U.S.Moem asarlari "muhabbat" konsepti mohiyatiga chuqqurroq kirib borish, shuningdek, kognitiv jarayonlarning ingliz tili madaniyati vogeliklari bilan bog'liqligini ochib berishga imkon beradi [3,22].

Z.Akbarovaning ta'kidlashicha, olamning lingvistik modeli olam manzarasi bilan bog'liq, ammo olam modeli yanada zamonaviy va keng qamrovli atamadir. T.V.Sivyan olam modelining universalligi va uning olam manzarasiga nisbatan keng qamrovlligini ta'kidlaydi: "OLMning markazida binar qarama-qarshiliklar tizimi mavjud" [4,98].

"Muhabbat" konsepti ko'p qatlamlı konseptlardan biri sifatida, rus, ingliz, fransuz, nemis va ukrain tillari materiallari asosida tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda umuminsoniy va madaniy tushunchalardan biri bo'lgan "muhabbat" konsepti ko'plab tillarda tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Masalan, "muhabbat" konseptining leksik-semantik strukturasini tavsiflash, turli lingvomadaniyatlarda uning lingvokulturologik o'ziga xosligini va hissiy tushuncha sifatida o'rganish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

"Muhabbat" konseptini individual olam manzarasi elementi sifatida o'rganish birinchi marta L.N.Churilina tomonidan olib borilgan [5].

"Muhabbat" konsepti getyerogen tabiatli bo'lib, u bilan bog'liq qator tushunchalarning kombinatsiyasi sifatida ham tavsiflanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, ijtimoiy fikrlar tarixida muhabbatga turlicha ma'no berilgan. Yunonistonda muhabbatni kishilar va tabiat ustidan hukmronlik qiluvchi afsonaviy kuch deb tushunganlar,

ILMIY AXBOROT

natijada, muhabbat xudosi – Eros (Eros) haqida tasavvurlar vujudga kelgan. Empedokl muhabbatni olamni – insonlar va tabiat hodisalarini uyuşdırırıb, birlashtırıb turuvchi omil deb qaragan, Platon muhabbatni 2 turga – hissiy muhabbat va aqliy muhabbatga ajratadi. Uning fikricha, hissiy muhabbat tashqi go'zallikni his qilishdan hosil bo'ladi va muhabbatning quyi bosqichini tashkil etadi. Aqliy muhabbat esa go'zallikni keng ma'noda – axloqiy-estetik, ilmiy tushunishdan paydo bo'ladi. U aqliy (ma'naviy) muhabbatni ustun qo'yadi.

Muhabbat – bu murakkab his bo'lib, bir paytning o'zida ham implitsit, ya'ni yashirin, ham eksplitsit – oshkora namoyon bo'lishi mumkin. Uning tilda ifodalanishini ham shu tarzda kuzatish mumkin.

Muhabbat – bu ehtiros, kuchli va barcha narsani yengib o'tishga qodirligi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha, jinslar o'rtasidagi jismoniy sevgi – bu behuda yoki be'mani hisoblanib, aksar hollarda, erkaklarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Oddiy kishilardan tashqari yozuvchi, shoir, qo'shiqchi uchun obrazli tarzda muhabbat konsepti uchta asosiy qismni boyitib, to'ldirib keladi, ya'ni individual jihatini aks ettiradi, uning ifodasi uchun individual leksik-stistik vositalar tanlanadi, obrazli tarzda muallifning shaxsий-hissiy tajribasi ifodalanadi, asar muallifi mansub bo'lgan millatga xos qadriyatlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Olamning lisoniy va hissiy manzarasi olam manzaralari ichida uning eng muhim manzaralaridan biri hisoblanadi, chunki his-tuyg'ular inson hayotida muhim va murakkab psixik jarayondir. Inson ongida idrok etiladigan "hissiy kechinmalar" olam va inson o'rtasidagi munosabatlarning eng qiyin bosqichi hisoblanadi. Turli leksikografik manbalarda keltirilgan "emotsiya" so'zi [fr.emotion, < lot. emovere – "hayajonga solmoq", "to'lqinlatirmoq"] tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siri natijasida odam va hayvonlarda paydo bo'ladigan ruhiy kechinma; his, tuyg'u, his-hayajon; qo'zg'alish. *Kuchli emotsiya. Emotsiyaga berilmoq* kabi ma'nolarni anglatishi ta'kidlanadi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "emotsiyalar" olyi ijtimoiy ehtiyojlar asosida paydo bo'luvchi differension va turg'un emotsiyalar, odatda, *hissiyot* deb atalishi qayd etilgan.

Ommaviylik va universallik xususiyatiga ega bo'lgan "muhabbat" konsepti – bu buyuk va oddiy odamlar e'tiborini tortadigan ruhiyat in'ikosidir. Olamning hissiy manzarasi ruhiy holat bilan bog'liq holda idrok qilish va harakatlanishni motivatsiyalaydigan jarayondir. Ma'naviy madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan muhabbat, sevgi o'zining umumbashariy tabiatiga qaramay, har bir inson ongi va ruhiyatida farqlanibgina qolmay, balki alohida til madaniyatida ham o'ziga xos xususiyatga ega. "Muhabbat" konsepti turli til egalarining ruhiyatida va tilida umumiy hamda universallikka ega bo'lib, u insonlarni hayotiy mazmun va maqsadga yo'naltiradi.

Sharq va G'arbda bu tuyg'u ikki xil tushunilgan: Yaratganga nisbatan hamda bandasiga nisbatan bo'lgan sevgi. Boshqacha aytganda, ilohiy muhabbat insonga bo'lgan muhabbatga qarshi qo'yildi. Aytish mumkinki, Sharqda hozirda birinchi turdag'i muhabbat yuksak qadriyat hisoblansa, G'arbda biroz boshqacha tendensiya kuzatiladi.

XULOSA

Turli tadqiqotchilar tomonidan "Muhabbat" konsepti eng asosiy lingvomadaniy konseptlardan biri ekanligi ta'kidlanadi. "Muhabbat" konsepti haqidagi falsafiy, psixologik, ijtimoiy-madaniy va boshqa fanlarda ishlab chiqilgan turli nazariyalarni tahlil va sintez qilish hamda umumlashtirish asosida quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- muhabbat – bu mukammal mohiyat va mukammallikning gipotezasi sifatida uni aniqlash va tasniflashni rad etadi;
- muhabbat, ya'ni sevgi fenomeni o'ziga xosdir. Uning o'ziga xosligi nafaqat "vaqtan tashqarida" mavjudligida, balki konseptning universal, global tabiatida namoyon bo'ladi. Boshqa hech bir konsept madaniy ma'no kasb etishda bunday keng doirani qamrab olmaydi;
- muhabbat, ishq, sevgi – aksiologikdir. U ijtimoiy xarakterga ega, uning xususiyatlarida taqqoslash, baholash (ijobiy yoki salbiy) aksiologik tushunchalar mavjud;
- muhabbat konsepti umuminsoniy tushunchani ifodalab, bir til egalarining olam hissiy-lisoniy manzarasida, ma'naviy qadriyatlar tizimidagi roli tufayli etnik-madaniy va "milliy ma'nolar"ga ega;

- o'zbeklar hissiy-lisoniy manzarasida esa (mehr, rahm-shafqat, muloyimlik, sabr v h.);
- muhabbat milliy belgiga ega bo'lib, har bir tilda o'ziga xos konseptual maydonni tashkil etadi.

Shu boisdan ham "muhabbat" konsepti haqida gap ketganda insonga xos his tuyg'ularga va hissiy holatlarga ishora qiluvchi *mehr, sog'inch, ayriliq, hayajon, qo'rquv, sir* va h.k. kabi so'zlar assotsiativ tarzda "muhabbat" konsepti bilan bog'lanib, olamning hissiy manzarasini hosil qiladi.

Shunday qilib, o'zbek tilida "muhabbat" konsepti ikkinchi bir insonga yoki biror bir narsaga nisbatan iliq tuyg'ularni boshdan kechirish shakli sifatida *tuyg'u, ehtiros, moyillik, hamdardlik, fidoyilik, mehr* va h.k. kabi leksemalar bilan ifodalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кульгавова Л.В. Опыт анализа значений говорящего (На материале абстрактного имени Love в современном английском языке): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 1995.
2. Смоленцева М.В. Эмоциональный концепт «любовь» в песенном дискурсе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Чебоксары, 2009.
3. Ирилова А.Д. Вербализация концепта «Любовь» в произведениях У.С. Моэма и их переводах: когнитивно-прагматический аспект: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Майкоп, 2013.
4. Акбарова З.А. Оlam lisoniy manzarasining shakllaniishiida kognitiv ӯziga xoslik: Filol. fan. dr-i (DSc) ... dissc. – Farfon'a, 2021.
5. Чурилина Л.Н. Лексическая структура художественного текста.